UDK: 595.754(575.1)

ODONTOTARSUS PURPUREOLINEATUS (ROSSI, 1790) TURINING FARG‘ONA VODIYSIDA UCHRASHI BO‘YICHA FAUNISTIK MA’LUMOTLAR

[a]Mirmuxsin Mahmudov Uchqunbek o‘g‘li
[a]Farg‘ona davlat universiteti doktoranti, b.f.f.d (PhD)
ORCID ID: 0000-0002-3013-6684

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqot davomida Scutelleridae oilasiga mansub Odontotarsus purpureolineatus (Rossi, 1790) turining Farg‘ona vodiysida koordinata bilan aniq uchrash holati ko‘rib chiqiladi. Tur Palearktika mintaqasida keng tarqalgan bo‘lib, Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region bo‘yicha O‘zbekiston ham uning tarqalish hududlari qatorida keltirilgan. Material 2021 va 2022 yillarda Farg‘ona viloyati Satkak hududidan to‘plangan va ma’lumotlar GBIF xalqaro bazasiga kiritilgan. Natijalar turning O‘zbekiston hududidagi tarqalish ma’lumotlarini to‘ldiruvchi material sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Heteroptera, Scutelleridae, Odontotarsus purpureolineatus, Farg‘ona vodiysi, faunistik ma’lumot, GBIF.*

Scutelleridae Leach, 1815 oilasi Pentatomoidea katta oilasining yirik guruhlaridan biri bo‘lib, vakillari asosan Palearktik mintaqasida keng tarqalgan [2]. *Odontotarsus* Laporte, 1833 avlodi ushbu oilaning Odontotarsinae Mulsant & Rey, 1865 kenja oilasi, Odontotarsini Mulsant & Rey, 1866 tribasiga mansub bo‘lib, quruq dasht va tog‘ oldi biotoplari uchun xarakterlidir [1, 2]. *Odontotarsus purpureolineatus* turini birinchi marta Rossi (1790) *Cimex purpureolineatus* nomi ostida tavsiflagan; uning sintiplari Italiyadan bo‘lib, hozirda yo‘qolgan deb hisoblanadi [2]. Turning hozirgi taksonomiyasi Göllner-Scheiding (1990) tomonidan amalga oshirilgan avlod reviziyasiga asoslanadi [1].

Tur uchun bir qancha sinonimlar ma’lum: *Odontotarsus grammicus* var. *lutescens* Fieber, 1861; *O. nigricornis* Garbiglietti, 1869; *O. rugicollis* Jakovlev, 1884 (holotip ♀, Rossiya, Orenburg; ZMAS) va *O. insignis* Jakovlev, 1908 (holotip ♀, Gruziya, Gagra; ZMAS) [2]. SO‘nggi ikki nom Kerzhner (1964) tomonidan sinonim deb e’lon qilingan [2].

Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region ma’lumotlariga ko‘ra tur keng Palearktika hududiga ega bo‘lib, Yevropa, Shimoliy Afrika (Misr) va Osiyoning ko‘plab mamlakatlarini qamrab oladi; Osiyo qismida Ozarbayjon, Armaniston, Eron, Iroq, Suriya, shuningdek Markaziy Osiyo – Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston ham keltirilgan [2,3]. O‘zbekistonda tur milliy faunistik ro‘yxatda ham qayd etilgan (Iskandarov va boshq., 2022) [5], biroq aksariyat manbalarda aniq koordinatali qaydlar keltirilmagan. Ushbu ishning maqsadi – turning Farg‘ona vodiysidagi uchrash holatini koordinata bilan hujjatlashtirilgan material asosida tahlil qilishdan iborat.

Material 2021–2022 yillarda Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Satkak hududida kuzatuv usulida to‘plandi. Namunalar M.Mahmudov tomonidan yig‘ilib, I.Zokirov tomonidan morfologik belgilar asosida aniqlandi [7]. Geografik koordinatalari WGS84 tizimida qayd etilib, ma’lumotlar GBIF (Global Biodiversity Information

Facility) xalqaro bazasiga Fergana State University dataseti orqali kiritildi [6]. Turni aniqlashda Göllner-Scheiding (1990) [1] va Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region [2] diagnostik manbalaridan foydalanildi.

Farg‘ona viloyati Satkak hududida *Odontotarsus purpureolineatus* turining ikki qaydi koordinata bilan hujjatlashtirildi: 40.406985° N, 71.70037° E (554 m, 23.05.2021) va 40.404861° N, 71.698844° E (558 m, 29.05.2022). Ikkala qayd ham may oyiga to‘g‘ri keladi, bu turning faollik davriga mos keladi – Palearktika hududida tur may–sentabr oralig‘ida, iyun oyida eng yuqori cho‘qqi bilan kuzatiladi.

Morfologik jihatdan individ tanasining och jigarrangda bo‘lib, uzunasiga to‘q chiziqlar bilan qoplanishi, skutellum yelka burchaklarining chiqib turmasligi va skutellum uchidagi ikkita uzunasiga chiziq bilan ajralib turadi [4]. Bu belgilar uni yaqin turlardan – *O. robustus* va *O. callosus* dan farqlash imkonini beradi.

Olingan ma’lumotlar turning Markaziy Osiyo arealiga oid mavjud katalog yozuvlari bilan mos keladi. O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston turning rasmiy tarqalish hududlari sifatida ko‘rsatilgan [2]. Koordinatali qaydlarning aksariyat tarixiy va katalog manbalarida yetishmasligini hisobga olganda, Satkak materiali turning O‘zbekiston hududidagi tarqalishini aniqlashtiruvchi va to‘ldiruvchi ma’lumot sifatida ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona viloyati Satkak hududida olib borilgan kuzatuvlar natijasida *Odontotarsus purpureolineatus* turining mahalliy uchrash holati ikki yil davomida (2021, 2022) koordinata bilan hujjatlashtirildi. Tur Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region bO‘yicha O‘zbekiston faunasi tarkibida keltirilgan bo‘lsa-da, aniq koordinatali qaydlar kam uchraydi. Shu jihatdan ushbu material turning O‘zbekiston hududidagi tarqalishini to‘ldiruvchi ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda turning Farg‘ona vodiysidagi biotop bog‘liqligi, ozuqa o‘simliklari, fenologiyasi va populyatsion holatini batafsil o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Göllner-Scheiding U. Revision der Gattung *Odontotarsus* Laporte de Castelnau, 1832 (Heteroptera, Scutelleridae) // Mitteilungen der Zoologischen Museum Berlin. – 1990. – Bd. 66. –S. 333–370.

2. Aukema B., Rieger C. (eds.). Catalogue of the Heteroptera of the Palaearctic Region. Vol. 5: Pentatomomorpha II. –Amsterdam: Netherlands Entomological Society, 2006. –P. 190–227 (Family Scutelleridae, by U. Göllner-Scheiding).

3. Ghahari H., Moulet P., Rider D.A. An annotated catalog of the Iranian Pentatomoidea (Hemiptera: Heteroptera: Pentatomomorpha) // Zootaxa. –2014. –Vol. 3837, № 1. –P. 1–95. DOI: 10.11646/zootaxa.3837.1.1.

4. Candan S., Suludere Z., Erbey M. Morphology of eggs and spermatheca of *Odontotarsus purpureolineatus* (Heteroptera, Scutelleridae) // Biologia. –2007. –Vol. 62, № 6. –P. 763–769. DOI: 10.2478/s11756-007-0137-x.

5. Iskandarov A., Gandjaeva L., Musaev D. et al. Updated Checklist of the Pentatomidea (Heteroptera: Pentatomomorpha) of Uzbekistan // WSEAS Transactions on Environment and Development. –2022. –Vol. 18. –P. 1283–1295. DOI: 10.37394/232015.2022.18.121.

6. GBIF Secretariat. *Odontotarsus purpureolineatus* (Rossi, 1790). GBIF Backbone Taxonomy. URL: https://www.gbif.org/species/4486022 (murojaat: 10.06.2026).

7. Mahmudov M.U. G‘arbiy Farg‘ona qandalalari (Heteroptera: Pentatomoidea) faunasi va ekologiyasi: biol. fan. b‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoreferati: 03.00.06. – Farg‘ona, 2025. – 45 b.